

KUZ OBRAZINING TRINAR TALQINI

Madraximova Inobat Baxodirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr o‘zbek she’riyatida yangilanish tamoyili va uslubiy o‘ziga xoslikni boshlab yergan Cho‘lpon ijodidagi kuz obrazining falsafiy-estetik kategoriyasining R.Parfi va Usmon Azim ijodiga ta’siri, idrok modifikatsiyasi talqin qilinadi. Unda kuz istiqlol va ozodlikning yorqin ranglari bilan uyg‘unlik kasb etishi, inson hamisha o‘z millatining kelajagi haqida qayg‘urib yashashi muhimligi ifodalananadi. Kuz – obrazining trinar talqini Cho‘lpon, Rauf Parfi, Usmon Azim poetik izlanishlarida haqiqat va o‘lim, nafs va iymon tushunchalariga evrilish moduslari dalolatlaydi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, she’riyat, uyg‘unlik, millat, obraz, davr, haqiqat, nafs, iymon, o‘lim, modus.

ТРИНАРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОСЕННЕГО ОБРАЗА

Мадрахимова Инобат Баходировна,
научный исследователь Чирчикского государственного педагогического
университета

Абстракт. В данной статье рассматривается влияние философско-эстетической категории образа осени в творчестве Чолпон, положившей начало принципу обновления и стилистического своеобразия в узбекской поэзии XX века, на творчество Р. Парфи и Усмана Азима, а также ее модификацию. восприятия интерпретируется. В нем выражается важность гармонии осени с яркими красками независимости и свободы, а также важность человека, всегда беспокоящегося о будущем своего народа. Троичная трактовка образа осени указывает на способы эволюции понятий истины и смерти, похоти и веры в поэтических исследованиях Чолпона, Рауфа Парфи, Усмана Азима.

Ключевые слова: художественный текст, поэзия, гармония, нация, образ, эпоха, истина, самость, вера, смерть, модус.

TRINARY INTERPRETATION OF THE AUTUMN IMAGE

Madrakhimova Inobat Bakhodirovna,
researcher of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. In this article, the influence of the philosophical-aesthetic category of the image of autumn in Cholpon’s work, which initiated the principle of renewal and stylistic uniqueness in Uzbek poetry of the 20th century, on the works of R. Parfi and Usman Azim, and the modification of perception is interpreted. It expresses the importance of autumn being in harmony with the bright colors of independence and freedom, and the importance of a person always worrying about the future of his nation. The trinary interpretation of the image of autumn indicates the modes of evolution to the concepts of truth and death, lust and faith in the poetic researches of Cholpon, Rauf Parfi, Usman Azim.

Key words: artistic text, poetry, harmony, nation, image, era, truth, self, faith, death, mode.

Har qanday badiiy matn mohiyati qiyosiy-tipologik talqini asosida yanada o‘ziga xosligi yorqin namoyon bo‘ladi. Badiiy matn (she’r)ning yozilgan davri va uni eshitguvchi omma, tushunuvchi olimlar, faylasuflar bo‘lishi tabiiy. Muhimi esa davrning muammolari, og‘riqlari, botiniy iztiroblari o‘sha kayfiyatga yaqinlashishi lozim. Bu kayfiyat tadrijiy davom etsa, trinar bir g‘oya negizida yuzaga chiqishi oson kechadi. XX asr boshlarida Cho‘lponning qator she’rlarida ozodlikning

o‘lim bilan olishi, jamiyatning ixotalanishi, uning zulmkorlari va g‘ayri kuchlari orasida “yashab qolish”ga intilish kuchliligi haqiqat. Cho‘lpon anglagan va boshqalarga tushuntirmoqchi bo‘lgan kayiyatini borliqning ikkita fasli – bahor, kuz timoslida oydinlashtiradi. Bahor – Cho‘lpon uchun tug‘ilishning bir ramzi sifatida idrok etilsa, kuz – o‘lim, oxirat va abadiy visol uchun boshpona, makon va mangu qo‘nim topadigan xilqat, Vatandir! Kuz changalida nafs ham, iymon ham birlashadi. Undan ranglar olayotgan qorong‘ulikni yorug‘likka aylantira oladigan – amallar birligi qabarib ko‘rinadi.

Kuz – shoir aytganidek, olam va odam dardlarini tushunuvchi borliqdir. Unda shaxsiyat va qadriyat birlashib, yagona estetik markazni tashkil qiladi. Inson hamisha o‘z qalbining istak va intilishlari bilan yashaydi. Masalan, Cho‘lpon XX asr boshlarida boshlagan ozodlikka intilish, uni butun borlig‘i bilan kuylash, olomonchilik kayfiyatini yo‘qotish, millat va milliyat uchun kurashish muhimligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Aynan shu jabhada boshqalarning ham orzularini, insoniy e’tifodi va maslagini mustahkamlashga yo‘naltiradi. Cho‘lpon, Rauf Parfi, Usmon Azim she’rlarida kuz obraziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, olamdagi har qanday idrok qilinayotgan mohiyat insonning ehtiyojlari o‘laroq paydo bo‘lishi, uni tutib turgan yagona kuch Allohnning iznisiz biror narsa sodir bo‘lmasligiga ishora mavjud.

“Obraz juda keng tushuncha. U olam – ob‘yektiv borliq va ijodkor – sub‘yektiv borliqning o‘zaro “to‘qnashuvi”dan paydo bo‘ladi. Obraz – bu voqelikdan ko‘chirilgan kalka – nusxa emas. Unda ijodkorning individual yondashuvi aks etadi. Agar mana shu yondashuv bo‘lmasganda edi, badiiy adabiyotdagi obraz tushunchasi o‘zining ko‘p qatlamlili mohiyatini yo‘qotgan bo‘lardi. Chunki aynan obrazga yuklangan individuallik alal-oqibatda uning jozibasini oshiradi, ya’ni obrazni turli-tuman nuqtai nazardan turib baholash, talqin etish imkonini beradi. Obrazning kuchi, jozibasi yana shundaki, u shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikr, his-tuyg‘u va kechinmani ma’no jihatidan tovlantirib beradi. Ya’ni o‘z kayfiyatini ayniqsa, ramziy obraz orqali aks ettirgan shoir shu narsaga erishadiki, endi uni har o‘quvchi o‘ziga tanish manzaralarda tushunadi. U yaratgan obrazlar muxlislar qalbida yangidan inkishof etiladi. Shu ma’noda har bir o‘quvchining yuragida o‘z “Go‘zal”i, (Cho‘lpon), o‘z “Na’matag”i (Oybek) va o‘z “Tilla baliqcha”si yashaydi. Demak, shoir obraz orqali fikrlay boshlaganda fikrini oxirigacha aytmaydi. Chunki bu ishni o‘quvchining o‘zi bajaradi. Shu tarzda san’atning, she’riyatning estetik ta’sir maydoni kengayib boradi”[4]. Binobarin, Cho‘lpon she’riyatidagi obraz tashuvchi elementlar sistematik tarzda – erk tushunchasi bilan uyg‘unlashadi:

Kuz chog‘i tuproqlar gezarub qoldilar...

Gezarub qoldilar kuz chog‘i tuproqlar.

So‘ng damda yaproqlar qizarub oldilar,

Qizarub oldilar so‘ng damda yaproqlar.

Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur.

Yong‘oqg‘a yopishub bir changal soldilar,

Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?[2]

She’rda asosiy obraz kuz! Uning boshqa sabablarga yo‘l ochishi, Cho‘lponning estetik idealini yuzaga chiqara boshlaydi. Kuz – Cho‘lponning hayqirig‘i, dardlari va afsuslari bo‘lib yangraydi. Tuproqning gezarishi – jonlantirish san’ati. Qachonki tuproq gezaradi, unga mos bir tuyg‘u (yaxshilik) ato qilinmayapti. Ko‘karib meva berayotgan daraxt kuzga kelib qovjirayapti. Mevalaridan esa xazon uyumlari bino bo‘lmoqda. U tongni, erknii va ozodlikni kutgandi. Natijada kuz unga kutilgan sovg‘asini in’om qilmayapti. Baxllik, xudbinlik va xoinlik urchigan bog‘ni – qora qarg‘alar makon ayladi. Bulbullarning bou bog‘da xandon otib sayrashi u yodqa tursin, qaytib kelolmasligini iztirob bilan talqin etmoqda. Negaki, bog‘da qarg‘alarning qalashib qolishi – natija, oqibat falsafasi tomon o‘sib bormoqda. “Bilmadim, kimlarning nasibasi uzelur...” misrasida odam tabiatida bo‘layotgan, haqiqiy kurashchi ruhiyatida yuzaga chiqayotgan kayfiyat ochiqlanadi.

Taqdir – nasibadan degan gap bor. Nasibasi, rixqi, joni uzilishiga, haqiqatni aytganligi uchun o‘lim bilan (kuz)da vidolashishiga amin bo‘lmoqda. She’rning yozilganiga e’tibor beraylik. 1929 yil sho‘ro o‘z kuchini ko‘rsatishga hozirlik bilib, Hamza o‘ldirilgandi. Behbudiy sal oldinroq qatag‘on etilgandi. Fitrat va Qodiriylar, Otajon Hoshim singari millat oydinlariga turli xil bo‘htonlar, taziyqlar uyushtirilayotgandi. Sho‘roning siyosati o‘z kuchini millat ziyorolarini yo‘q qilishga qaratilgan nozik lahzalarda Cho‘lpon kuz bilan intizor bo‘lib sirlashadi. Bu intizorlik Cho‘lponni go‘zal visolning ko‘pga cho‘zilmasligiga ishontirishga olib keladi.

Tanqidiy tafakkur va so‘z bilan (she’r) unga qarshi bo‘lish ochiq-oydin ko‘zga tashlanadi. Keyingi misralarga e’tibor berilsa, masala mohiyati oydinlasha boradi:

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelganlar,
U qo‘pol tovshingiz qirlarda yo‘q bo‘lsun!

Sovuq el, mustamlakachilar, ularning qing‘ir ishlari, uzoqni ko‘zlab qilgan “bo‘lib tashla va boshqar” singari qaltis rejalarini Cho‘lpon kabi jadid allomalar teran tushunib yetadi. “Qirlarda yo‘q bo‘lsin”, deb kim ham botinib aytadi? Cho‘lpon kabi buyuk millat shoni va sharafi uchun jon kuydirayotgan zakiy zotlargina botinishga jur’at topadi. Bunday jur’at boshqa jadidlar ijodida ham ochiq-oydin ko‘zga ko‘rinadigan darajada xilma-xil janrlarda namoyon bo‘lmoqda edi. Shunday qaltis vaziyatlarda Cho‘lpon o‘z olamidagi zafa’aron mevalarini termoqchi bo‘lganlagra – qarg‘ish yo‘sinida ham norozilik kayfiyatini bayon qiladi:

Ey, menim bog‘imda mevani terganlar,
Qop-qora boshingiz yerlarga ko‘mulsun!

Cho‘lpon she’riyatida kuz timsoli butun ijodidagi yagona estetik idealni tashuvchi logistika. U eskirmas, o‘zgarmas va millat kelajagi uchun har qanday xatarni ko‘rsatib beruvchi mayoqdir. Cho‘lponning yutug‘i ham aslida shunday o‘lmas obrazlar bilan boyitilgan lirikasida muhrlandi. Bu jarayon keyinchaliye Rauf Parfi ijodida davom etdi. Erk va ozodlik tushunchasini Cho‘lpondan keyin ko‘p va xo‘p tilga olgan yagona shoir Rauf Parfidir. Rauf Parfi ijodida ozodlikning boshqacha kayfiyatda idroklanishini ko‘ramiz:

Dunyo oq emasdир, yo‘q, qora bardosh,
Kuyib yodimizdan kechganlar aytsin.
So‘zlarida zahar, ko‘zlarida tosh,
Elidan, tilidan kechganlar aytsin.

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,
Kunlar gizli tug‘yon, bosib kelar she’r.
Nechuk qismat erur shoir qismati,
Tushlarimni buzar hazrat Alisher[4].

Shoir poetik obrazini tashuvchi so‘zlar – dunyodir! U dunyoning qora bardosh ekanligini shu qadar nozik timsollashtirganki, asl millat tabiatidagi mardlikni mehnat va mashaqqat bilan o‘ksib nur axatarayotgan qatlamga murojaat qiladi. Tunlar bosib kelayotgan dunyo hasratida yashayotgan 60-yillar avlodida – kuz, xazon bo‘lish va undan qutulish muhimligini bot-bot ta’kidlaganida ko‘rinadi. Hatto qayg‘uli tushiga Alisher ham kirishi, chinakam ijodkorning ruhiy fazosi hadsizlik sari yo‘l olishi boshqacha ranglarda yangraydi:

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko‘chirdi o‘tluq yozimni.
Axtardim muhitda xas kabi qalqib –

Bahor – Cho‘lpon she’riyatida ham orginallik kasb etadi. Bahor shoir olamining ibtidosi. Intihosi esa kuzdir. “Axtardim muhitda xas kabi qalqib” misrasi xazon kabi qovjirab so‘igan, o‘zligidan ayrilgan, kelajagi haqida kuyinib gapirayotgan inson ruhiyati gavdalanadi. Muzlarga ko‘chirish, endi bu bahorning gullashiga umidvor bo‘lmaslikni keltirib chiqrmoqda. Bu millat bir paytlar dunyoga qanchadan-qancha olimlarni, oriflarni, faylasuflarni yetishtirib bergenligi ijodkorga hech

lahza tinchlik bermaydi. Shuning uchun ham, shoir o‘z qalbidagi mungli iztiroblarini yanada obrazli tarzda ifodalaydi:

Men o‘z Yulduzimni, o‘z Quyoshimni.

Yulduz sen. Quyosh sen. Sen ona xalqim,

Sen uchun sindirdim sinmas sozimni[3].

“Cho‘lpon “ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y” beradigan adabiyotni yaratishni orzu qiladi. Ayrim bayozlaru bir-ikki kitob bilan bu ishni bajarib bo‘lmasligini uqtiradi, tarixiy, adabiy maqolalar, she’rlar yozish, kitoblar tartib berishga targ‘ib qiladi. Murojaat so‘ngida qat’iy xulosaga keladi: “Yuragimiz kundan-kun toshdan qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk... Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot”. Istibdod, qo‘rquv, xo‘rlanish ichida yuragi muzlab qolgan millatning ruhini uyg‘otishda Cho‘lpon yagona najot yo‘li sifatida adabiyotni, she’riyatni ko‘radi. Uning “Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur” bashorati, afsuski, bugun ham butun yer yuzida soat sayin o‘z tasdig‘ini topmoqda”[1]. Haqiqatdan ham, Cho‘lponning kuz obrazi estetik idealdir. U Rauf Parfiga ham, Usmon Azimga ham, Shavkat Rahmon, Xosiyat Rustamovaga ham katta bir ijod qilish tribunasini yaratib berdi. Minbarga chiqib, millat haqida qayg‘urish, uning orzu-umidlarini baralla oshkor ifodalash hammaga ham emas. Uni tushungan tushunadi. Usmon Azimning yuzlab she’ri kuzga bag‘ishlangan. Shoир kuz faslida o‘zining umidlarini, orzularini yurak-yurakdan o‘tkazib ifodalaydi:

Bu dunyodan ketganimmi,

Bu dunyoga qaytganim,

Tillarimdan to‘kilgan so‘z —

Boychechakning aytgani.

Xazonrezli boqqa boqib,

Yoshga to‘lar ko‘zlarim —

Nahot, g‘amgin bu qo‘srig‘im

Xazonlarning so‘zlari[4].

Usmon Azimning she’riyatida ham kuz tirinar talqini xazon bilan uyg‘unlashadi. Demak, XX asr she’riyatida mustaqillik uchun kurash ikki xususiyatda, birinchi, shaxslararo ziddiyatlarning keskinlashuvi, ikinchisi yosh avlodning o‘sha munosabatlarga bo‘lgan tadrijiy idroki. Falsafiy-estetik nuqtai nazardan qaraganda, kuz obrazi har bir she’rida millat mustaqilligini va kelajagini, uning maqsadlarini, tarixini yaqqol namoyon etishga yo‘naltiriladi. Deylik, Cho‘lpondan boshlangan yangi she’riyat modifikatsiyasida kuz trianr birligi yaxlitlik kasb etib, istiqlolga bo‘lgan isnitilshlarni yanada mustahkamlashga yo‘l ochadi. Zero, umid va ishonch, Vatan sog‘inchi Usmon Azim badiiy olamini ham go‘zal tashbyehlar bilan bezay olganligida qabarib ko‘rinadi. Kuz har qanday savollarga javob topishga undovchi yagona estetik qiymat ekanligi oydinlashadi.

Adabiyotlar ruyxati:

1. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1991.
2. Nazarova Sh. XX asr o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari. –T.: “Akademnashr”. 2022.
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/rauf-parfi/>
4. <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/418>